



MADANIYATNING XILMA XILLIGI VA JAMIYATIMIZDAGI AHAMIYATI

*Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani 1-politexnikumi
Maxsus fan o'qituvchisi RAHIMOVA DILDORAHON*

Annotatsiya: Quyida madaniyat tushunchasi, madaniy tizimlar va insoniyatning integratsion yo'li mohokama qilinadi. Biz bunda falsafaning o'rni hamda ahamiyati kabi masalalarga ham yuzlanamiz. Nega insoniyat madaniy xilma xil hamda golabal dunyoda o'zaro integratsiya qanday ta'minlanishi kerak? kabi savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: madaniyat, globalizm, determinizm, axloq, til, ta'lim, tolerantlik, inson huquqlari.

Madaniyat – inson omili natijasida vujudga kelgan bebaqo fenomendir.

Insoniyat ilk sivilizatsiyalarga asos solgan davrdan to bugungi kungacha madaniy muhitda hayot kechirdi hamda turfa xil madaniy tizimlarga asos soldi.

Axloq, ta'lim, til va ta'limotlar madaniyatning ajralmas qismi sifatida qaror topdi. Madaniy tizimlarning bu kabi ajralmas elementlaridan tashqari yana bir qancha atributlar ham madaniyatning muhim bo'lagi sifatida qaraladi. Qadim davrlarda va bugungi kunda ham shakllanayotgan madaniy tizimlar determinizm xususiyatiga ega bo'lib, bunda xalqlarning tabiiy-geografik yashash muhiti asosiy faktor sifatida qaraladi. Misr, Mesopotamiya, Yunoniston, Xitoy hamda Hindiston madaniyatları shular jumlasidandir. Ya'ni, bu xalqlarning tafakkurida va madaniyatida ular yashaydigan muhitning o'rni muhimdir. Antropologik qiyofa, kiyinish, urf-odatlar hamda xo'jalik yuritish kabi xususiyatlar deterministik omil natijasida shakllanishi qazishma ishlari natijasida topilgan manbalarda ayon haqiqatdir. Madaniy tizimlarning xilma xil bo'lish sababi ham shudir. Biroq, g'arb va sharq mintaqasida joylashgan bir xildagi geografik muhitga ega bo'lgan xalqlar o'rtasida madaniy tafovutlarning mavjud bo'lish sabalari kishini hayratga soladi. Bu o'rinda biz



madaniy tizimlarning turfa xillik sababi nafaqat determinizm omiliga, balki qo'shni hududning ta'siriga ham bog'liq ekanligini tushunib yetamiz. Aytaylik Xitoy xalqi tafakkurida o'rinni egallagan "samo" obrazni Xitoy hududiga yaqin ko'chmanchi turkiy xalqlar tafakkurida "osmon" obrazining vujudga kelishiga sabab bo'lgani ehtimoldan holi emas1. Bu kabi masalalar bugungi kunda o'z tasdig'ini topgan, muhokama obyekti sifatida qaralashi kamaygan. Endilikda esa, zamonaviy dunyoda olg'a surilayotgan "globalizm" g'oyasi va uning madaniy tizimlar o'rtasida vujudga keltirayotgan konfliktlari hamda xalqlar o'rtasida integratsiya qilish masalalari dolzarbdir. Q.Nazarov fikricha, "Insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining jahon miqyosida integratsiyalashishi, g'oyalar amaliyotining umuminsoniy xususiyat kasb etishi natijasida sodir bo'layotgan olamshumul ahamiyati globallashuv tushunchasida o'z ifodasini topmoqda. Dunyoga yangicha olamshumul nuqtai nazarning vujudga kelishi, kommunikatsiya vositalaridagi tub o'zgarishlar, investitsiyalar oqimi bilan bog'liq yangi jarayonlar, universal texnologiyalarning tarqalishi globallashuvning asosiy omilidir"2 Global dunyo konsepsiysi insonlar hayotining yaxshilanishiga, farovon jamiyatlarning ko'payishiga katta hissa qo'shgani bilan bir qatorda, turfa madaniyatlar o'rtasida konfliktlar kelib chiqishiga ham sabab bo'lди. Bu holat juda ayanchli tus olmagan bo'lsada, o'ziga xos psixik va kollektiv asoratlar keltirib chiqardi. Globalizm shakllantirgan afzalliklar demokratik tuzum , inson huquqlari,bolalar huquqi,ekologiya, raqobatli iqtisodiyot, texnik – texnologik yutuqlar,ilm – fan taraqqiyoti,farovon jamiyatlar sonining ortishi Globalizm keltirib chiqargan asoratlar ,qadriyatlar transformatsiyasi Bugun biz yechimini topishimiz darkor bo'lgan asosiy masala dunyoda mavjud jamiiyki madaniy tizimlarning integratsiyasini ta'minlovchi yagona falsafiy g'oyaga erishishdir. O'tkan asrda vujudga kelgan global dunyo konsepsiysi shu kabi yechimlardan biri. Odadta madaniyatlar birlashuvi tarixan sodir bo'lib kelgan jarayondir. Ikki madaniy tizim birlashib uchinchisi vujudga kelishi yoki bevosita ta'sir etish orqali yangi madaniyatlar yaralishi inkor etib bo'lmas haqiqat. Ammo o'tmishda bu jarayon katta vaqt talab etgan va hatto, bir nechayuz yillar ro'l o'ynagan holatlar ham mavjud. Bugun dunyo shiddat bilan tezlashgan, bir necha asr kutish esa katta vaqtning



yo'qotilishidir. Globalizm falsafasi esa bizga bir qancha qulayliklar taqdim etishi orqali jozibador va istiqbolli fenomen sifatida qaraladi. Tolerantlik, inson huqulari va ekologiya muammolari kabi umumiylashuvni qarashlar insonlarni birlashishga va birqalashib harakat qilishga undayapti. Inson huquqlari deklaratsuyasida ta'kidlangan "Barcha odamlar erkinlik, qadr-qimmat va huquqlarga ega bo'lib tug'iladilar" jumlesi buning isbotidir.³ Iqtisodiy sohaintegratsiyasi esa tabiiy ravishda yuksalishi mumkin, ammo falsafiy g'oyaningkeng miqyosda yoyilmasligi jarayonning istiqbolli kelajagiga rahna solmoqda. Avtoritar tuzumlarning ko'payishi, diniy ta'limotlar tomonidan reaksiyon harakatlar hamda ba'zi jamiyatlarning inson huquqlariga e'tiborsizligi madaniy tizimlar birlashuviga qarshilik tug'dirayotan omillardir. Lekin, bularga qaramay, globalizm misli ko'rilmagan miqyosda yuksalyapti. Globalizm –madaniyatlarning yo'q bo'lib ketishini emas, balki ularni birlashtirib, yagona madaniy tizim qurayotgan fenomendir. Falsafa esa, globalizm mohiyatini ohib berish, uning asoratlarini yumshatish hamda qadriyatlar transformatsiyasini izchil ta'minlab berish kabi masalalarni hal etishi kerak. Faylasuflar vamutaffakkirlar xalqlarning yashash muhitidan kelib chiqqan holda ularnibirlashtirish hamda globalizm g'oyasini qayta reformatsiya qilishni o'z oldilarigamaqsad qilishlari darkor. O'tkan yuz yil mobaynida qilingan harakatlar to'laqonlio'zini oqlamagani, hali hanuz jahonga integratsiyalasha olmagan madaniyatlarning mavjudligi oldimizga yangi savollarni tashlayapti. Biz umumiyxususiyatlar deya qaragan huquq va tenglik kabi tushunchalar ba'zi xalqlarga yod ekanligi kishini hayratga soladi. Demak, biz avvalo integratsiya qilishni emas, balki unga undaydigan omillarni axtarishimiz, xalqlar ongigasingdirishimiz kerak. Buning uchun iqtisodiy tizimning umumiylashuvbirlamchi asosdir. Dunyoga iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lish keyinchalik madaniy va falsafiy birlashuvni ham taqozo etadi. Yevropa imperializmi davrida Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylangan Hindiston kelasi yuz yillikda Angliyaga iqtisodiy qaramlikda hayot kechirdi. 20-asr ikkinchi yarmida mustaqillikning qo'lga kiritilishi katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi va Hindiston Angliya bilan o'zaro iqtisodiy aloqalar sabab butunjahon iqtisodiyotiga integratsiya qilishga erishdi hamda o'z taraqqiyot modelini yaratdi. Takidlash kerakki, global



dunyoga iqtisodiy metodlar orqali singib borish, integratsiya qilish mumkindir, biroq, bu jarayonning yuqorida ta'kidlanganidek falsafiy va g'oyaviy asoslari mustahkamlanmas ekan bu hol uzoqqa cho'zilmaydi. So'nggi yillarda ro'y berayotgan voqeа-hodisalar falsafa faniga muhtoj ekanimiz, uning zamонавиy davr uchun muhim bo'lган asoslarini o'рганишимиz lozim ekanligini uqtiryapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sodiqov Q. Qadimgi Turkiy xalqlarning diniy-falsafiy qarashlari. Toshkent Davlat Sharqshunoslik instuti, Toshkent, 2004.
2. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi (tajribaviy qo'llanma), Akademiya, Toshkent, 2011.
3. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (aksiologiya), Faylasuflar milliy jamiyati, Toshkent, 2004.
4. Po'latova D., Qodirov M., Sulaymonov J. Sharq falsafasi va madaniyati tarixi, Toshkent, 2018.
5. Shermuxamedova N. Inson falsafasi, Innovatsiya-ZIYO, Toshkent, 2020.